

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MIRZAYOROVA SEVARA UBAYDULLAYEVNA**

**KOMBINATSIYALASHGAN KO‘P POG‘ONALI QUYOSH SUV  
CHUCHUTGICH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

<b>Mirzayorova Sevara Ubaydullayevna</b> Kombinatsiyalashgan ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini ishlab chiqish .....	3
<b>Мирзаярова Севара Убайдуллаевна</b> Разработка комбинированной многоступенчатой солнечной опреснительной установки .....	21
<b>Mirzayarova Sevara Ubaydullaevna</b> Development of a combined multi-stage solar desalination plant .....	41
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	45

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MIRZAYOROVA SEVARA UBAYDULLAYEVNA**

**KOMBINATSIYALASHGAN KO‘P POG‘ONALI QUYOSH SUV  
CHUCHUTGICH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5373 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Fayziyev Tulqin Amirovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponetlar:** **Samiyev Kamoliddin A'zamovich**  
texnika fanlari doktori, professor;  
**Sattorov Bobonazar Nuftillayevich**  
texnika fanlari nomzodi, professor.

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent Davlat Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.09.2020.t.111.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashda 2025 yil "23" 10 soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Qarshi davlat texnika universiteti konferensiyalar zali. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95, e-mail: [kief\\_info@edu.uz](mailto:kief_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 154 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95 e-mail: [kief\\_info@edu.uz](mailto:kief_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «03» 10 kuni tarqatildi.  
(2025 yil «03» 10 dagi № 35 raqamli reestr bayonnomasi).



**G.N. Uzoqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

**X.A. Davlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**B.E. Xayriddinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda aholini chuchuk suv bilan ta'minlashda quyosh energetik qurilmalari asosidagi energiya samarador texnologiyalardan foydalanish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yer yuzasidagi suvning 97% qismini sho'r suv, qolgan 2% qismi shimoliy va janubiy qutblardagi muzliklarga tegishli bo'lib, faqatgina 1% qismi ichimlik suvi hisoblanadi<sup>1</sup>. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2035 yilga borib dunyo aholisining 1/4 qismi suv tanqisligidan aziyat chekadi, 2/3 qismi esa suv tanqisligini hamda 2050 yilga borib dunyo aholisining 1/2 qismi kuchli suv tanqisligini boshdan kechiradi<sup>2</sup>. Shu sababli, aholini chuchuk suv bilan ta'minlashda energiya samarador va yuqori unumdorlikka ega bo'lgan kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda quyosh energetik qurilmalari asosida ishlovchi kombinatsiyalashgan energiya samarador quyosh suv chuchutgich qurilmalarini ishlab chiqish, chuchuk suv ishlab chiqarish unumdorligini oshirish hamda qurilmaning energetik va eksergetik parametrlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, quyosh suv chuchutgich qurilmalarining maqbul geometrik va konstruktiv parametrlarini aniqlash, qurilmadagi issiqlik va massa almashinuv jarayonlarini, energetik va eksergetik balanslarini modellashtirish va quyosh suv chuchutgich qurilmasining energetik va eksergetik samaradorliklarini hamda unumdorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, chuchuk suv olish uchun kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmalarini ishlab chiqish va ularning energetik, eksergetik, ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, quyosh energetik qurilmalari asosidagi sho'r suvni chuchuklantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, an'anaviy yoqilg'ilarni tejash imkonini beradigan kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmalarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasida "...energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish..."<sup>3</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmalarini ishlab chiqish va joriy qilish dolzarb ilmiy-texnik masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-son, 2020 yil 10 iyuldagi PF-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini

---

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.3390/su141610136>

<sup>2</sup> <https://doi.org/10.1016/j.rser.2016.05.068>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.

o'shish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonlari, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa ilg'or texnologiyalar va qurilmalarni yaratish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmalarining energiya samaradorligi va unumdorligini oshirish, issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirish bo'yicha sohaning yetakchi olimlari M. Dashtban (Eron), U. Caldera (Germaniya), T. Arunkumar (Hindiston), L. Mu (Xitoy), A. Kabeel (Misr), R. Sathyamurthy (Hindiston), A.M. Manokar (Hindiston), F.A. Essa (Misr), S.W. Sharshir (Xitoy), G.N. Tiwari(Hindiston), H.A. Kumar (Hindiston), G. Raj (Hindiston), S. Yadav (Hindiston) va R. Bayramov (O'zbekiston)lar katta hissa qo'shgan.

Respublikamizda energiya samarador quyosh suv chuchutgich qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha yetakchi olimlar R.A. Zaxidov, R.R. Avezov, A.B. Vardiyashvili, B.M. Achilov, T.D. Jo'rayev, S.Q. Qahhorov, Sh.M. Mirzayev, J.S. Axatov, O.S. Komilov va M.S. Mirzayevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Quyosh suv chuchutgich qurilmalarining energiya samaradorligi va unumdorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining unumdorligini oshirish, kombinatsiyalashgan quyosh kollektorli va tashqi kondensatorli ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini ishlab chiqish, suv chuchutgich qurilmasining shaffof qoplamasi, sho'r suv asosida sodir bo'ladigan issiqlik almashinuv jarayonlarining issiqlik balansini matematik modellashtirish, kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmasining energetik va eksergetik balanslarini modellashtirish, chuchuk suv bo'yicha unumdorlikni oshirish uchun sho'r suvni quyosh suv kollektorlari yordamida dastlabki qizdirish hamda bug'latish kamerasidagi bug'ni tashqi kondensatorida kondensatsiyalash asosida energiya samaradorlikni oshirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, energiya samarador kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmalarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb ilmiy-texnik masala hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Qayta tiklanadigan energiya manbalari asosidagi energiya samarador qurilmalarni

yaratish va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini ishlab chiqish va energiya samaradorligini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ko‘p pog‘onali va kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmalari konstruksiyalarining zamonaviy holatini tahlil qilish;

quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli kombinatsiyalashgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining prinsipial sxemasini ishlab chiqish va issiqlik-texnik parametrlarini asoslash;

kombinatsiyalashgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining energetik va eksergetik balanslarini modellashtirish va sonli tadqiqot qilish;

kombinatsiyalashgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasida issiqlik almashinuv jarayonlarini va chuchuk suv bo‘yicha unumdorlikni tajribaviy tadqiqot qilish;

kombinatsiyalashgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining energetik, eksergetik, ekologik va iqtisodiy samaradorligini asoslash.

**Tadqiqotning ob‘yekti** sifatida kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining energetik va eksergetik balanslari, quyosh suv chuchutgich qurilmasidagi issiqlik va massa almashinuv jarayonlari, quyosh suv kollektor va bak-akkumulyatorli tizimning issiqlik almashinuv rejimlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, termodinamika, issiqlik va massa almashinuvi asoslari, o‘xshashlik nazariyasi, energetik va eksergetik tahlil, quyosh energetik qurilmalarini tajribaviy tadqiqot qilish va tajriba natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

quyosh suv chuchutgich qurilmasi, quyosh suv kollektori va tashqi kondensatorni kombinatsiyalashtirish asosida quyosh nurlanish energiyasi, quyosh suv kollektori va bak-akkumulyatorda zahiralangan issiqlikdan bir vaqtda foydalanish imkonini beradigan takomillashtirilgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi ishlab chiqilgan (FAP 02365);

ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining chuchuk suv bo‘yicha unumdorligini oshirish maqsadida tashqi kondensator, quyosh suv kollektori va bak-akkumulyatorda olingan qo‘shimcha issiqlik hisobiga quyosh energiyasi asosida ishlovchi sho‘r suvni chuchuklantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining bug‘lanish kamerasining shaffof qoplamasi, ichki qismidagi sho‘r suv va absorberining haroratlarini vaqt bo‘yicha o‘zgarishini hisoblash imkonini beradigan, energiya va eksergiya balansi tenglamalari asosidagi matematik model ishlab chiqilgan;

quyosh nurlanish intensivligi, tashqi havo harorati, sho‘r suvning kirish va chiqishdagi haroratlarini inobatga olgan holda kombinatsiyalashgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining bug‘latish kamerasining shaffof qoplamasi,

absorberi va sho‘r suv haroratlarini aniqlash imkonini beradigan dasturiy ta‘minot ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sho‘r suv dastlabki qizdiriladigan, quyosh suv kollektori, bak-akkumulyatori va tashqi kondensatorlardan tashkil topgan kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi ishlab chiqilgan;

kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmalari asosida sho‘r suvni chuchuklantiruvchi energiya samarador chuchuklantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik modellashtirish, zamonaviy tadqiqot va o‘lchash usullaridan foydalanish asosida olingan natijalar bilan asoslanadi, nurlanishli issiqlik almashinuv nazariyasi, issiqlik almashinuv tajribalarni o‘tkazish va natijalarni umumlashtirish usullari qo‘llanilganligi hamda quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini tajriba natijalarining ishonchliligi va nazariy natijalarga mos kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi bug‘lanish kamerasining shaffof qoplamasi, ichki qismidagi sho‘r suv va qoraytirilgan asoslarining haroratlari o‘zgarishini hisoblash imkonini beradigan, energetik va eksergetik balans tenglamalari asosida tuzilgan matematik model ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining energiya samaradorligini va chuchuk suv olish bo‘yicha unumdorligini oshirish uchun kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi ishlab chiqilgan bo‘lib, tabiiy yoqilg‘ilar sarfini kamaytirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chuchuk suv olish uchun quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli kombinatsiyalashgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi uchun O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan foydali modelga patent olingan (№FAP 02365; 23.11.2023). Natijada, ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasining unumdorligini oshirish usuli va yuqori samarador quyosh suv chuchutgich qurilmasining konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasi Qashqadaryo viloyati, “Aloye-m” XKda joriy etilgan (Energetika vazirligining 2024 yil 27 noyabrdagi №04/13-9914-son ma‘lumotnomasi). Natijada, umumiy foydali maydoni 1 m<sup>2</sup> bo‘lgan ko‘p pog‘onali quyosh suv chuchutgich qurilmasidan bir mavsumda foydalanilganda 1476,6 l chuchuk suv olishiga hamda 5334960 so‘mlik iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta halqaro va 6 ta respublika anjumanlarida aprotasiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 1 ta xalqaro va 4 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 1 ta foydali modelga patent va EHM uchun 3 ta dasturiy mahsulotga mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotasiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmalarining zamonaviy holati”** deb nomlangan birinchi bobida jahon amaliyotida quyosh suv chuchutgich qurilmalaridan foydalanishning zamonaviy holati, kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmalarining konstruksiyalari tahlili va ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarning ilmiy-texnikaviy tahlili keltirilgan. Bajarilgan ilmiy tadqiqotlarda erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, kombinatsiyalashgan quyosh suv kollektorli va tashqi kondensatorli ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini ishlab chiqish, suv chuchutgich qurilmasining shaffof qoplamasi, sho'r suv va qoraytirilgan asosida sodir bo'ladigan issiqlik almashinuv jarayonlarining issiqlik balansini matematik modellashtirish, kombinatsiyalashgan quyosh suv chuchutgich qurilmasining energetik va eksergetik balanslarini modellashtirish hamda bug'latish kamerasidagi bug'ni tashqi kondensatorida kondensatsiyalash asosida energiya samaradorlikni oshirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmalarida olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Kombinatsiyalashgan ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini modellashtirish va sonli tadqiqoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida kombinatsiyalashgan ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich (KKPQSch) qurilmasining prinsipial sxemasini ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan, KKPQSch qurilmasining energetik va eksergetik balanslarini matematik modellari va sonli tadqiqoti natijalari keltirilgan. Sho'r suvdan chuchuk

suv olish jarayonlarida energiya resurslarini tejash va quyosh energiyasidan maksimal foydalanish maqsadida KPQSch qurilmasi, quyosh suv kollektori (QSK), quyosh fotoelektrik paneli (FEP), suv-bug‘li va suv-suvli issiqlik almashinuv qurilmalari asosida ishlovchi KKPQSch qurilmasining texnologik sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1, 3, 6, 9, 10, 12, 17, 19-ventillar; 2-ventilyator; 4-bug‘-suvli issiqlik almashinuv qurilmasi (tashqi kondensator); 5-ko‘p pog‘onali QSK qurilmasi; 7-chuchuk suvni yig‘ish idishi; 8-qoldiq sho‘r suv idishi; 11-sho‘r suv idishi; 13-kengaytiruvchi bak; 14-quyosh suv kollektori; 15-bak-akkumulyator; 16-quyosh suv kollektori quvurlari; 18-sirkulyatsion nasos

**1-rasm. KKPQSch qurilmasining prinsipial sxemasi**

KPQSch qurilmasining absorber plastinasi qalinligi 1,6 mm, o‘lchami 1000x500 mm (0,5 m<sup>2</sup>). Absorber plastinada jami 9 ta pog‘ona mavjud. Absorber plastina uzunligi 1000 mm, kengligi 500 mm va balandligi 100 mm bo‘lgan metal korpusni ichiga joylashtirilgan va usti 1000x500x4 mm o‘lchamli shaffof qoplama bilan yopilgan. Qurilma korpusining yon va orqa tomonlari penopleks bilan izolyatsiya qilingan. QSK absorber plastinasi qalinligi 1,6 mm, o‘lchami 1000x500 mm (0,5 m<sup>2</sup>). Kollektor ichida diametri 15 mm bo‘lgan jami 5 dona quvurlar joylashtirilgan. Bak-akkumulyator silindrik shaklda bo‘lib, hajmi 0,063 m<sup>3</sup>. Issiqlik almashinuv qurilmasi botirilgan zmeevik turidagi bo‘lib, zmeevik quvur diametri 25 mm, umumiy uzunligi 1100 mm va o‘ramlar soni 10 dona. Tashqi kondensator silindrik shaklda bo‘lib, hajmi 0,028 m<sup>3</sup>. Tashqi kondensator botirilgan zmeevikli turidagi bo‘lib, zmeevik quvur diametri 20 mm, umumiy uzunligi 800 mm va o‘ramlar soni 10 dona.

KKPQSch qurilmasida sho‘r suvni chuchuklantirish jarayonlarini optimal rejimini tashkil etish uchun KPQSch qurilmasi, bak-akkumulyator va tashqi kondensatorlarning energetik va eksergetik balanslari matematik modellashtirildi.

KKPQSch qurilmasi uchun umumiy energiya balansi tenglamasi:

$$\sum En_k - \sum En_{ch} = \left( \frac{dEn}{d\tau} \right)_{nh} \quad (1)$$

Shaffof qoplama uchun energiya balansi tenglamasi:

$$m_{sh} C_{p,sh} \frac{dt_{sh}}{d\tau} = \alpha_{sh} I A_{sh} + h_{s-sh} A_s (t_s - t_{sh}) - h_{k,sh-t.h} A_{sh} (t_{sh} - t_{t.h}) - h_{r,sh-o} A_{sh} (t_{sh} - t_o) \quad (2)$$

Bug‘lanayotgan sho‘r suv uchun energiya balansi tenglamasi:

$$I \tau_{sh} \alpha_s A_s + h_{a-s} A_a (t_a - t_s) - h_{s-sh} A_s (t_s - t_{sh}) = m_s C_{p,s} \frac{dt_s}{d\tau} \quad (3)$$

Absorber plastinasi uchun energiya balansi tenglamasi:

$$\tau_{sh} \tau_s \alpha_a A_a I = h_{a-s} A_a (t_a - t_s) + U_a A_a (t_a - t_{t.h}) + m_a C_{p,a} \frac{dt_a}{d\tau} \quad (4)$$

Yuqoridagi (1)-(4) tenglamalar asosida shaffof qoplama, bug‘lanayotgan sho‘r suv va absorber plastinaning haroratlarini vaqt bo‘yicha o‘zgarishini aniqlash imkonini beradigan tenglamalarga ega bo‘lamiz:

$$\frac{dt_{sh}}{d\tau} = \frac{\alpha_{sh}A_{sh}}{m_{sh}C_{p,sh}} I - \frac{h_{s-sh}A_s + (h_{k,sh-t,h} + h_{r,sh-o})}{m_{sh}C_{p,sh}} t_{sh} + \frac{h_{s-sh}A_s}{m_{sh}C_{p,sh}} t_s + \frac{h_{k,sh-t,h}A_{sh}}{m_{sh}C_{p,sh}} t_{sh} + \frac{h_{r,sh-o}A_{sh}}{m_{sh}C_{p,sh}} t_o \quad (5)$$

$$\frac{dt_s}{d\tau} = \frac{\tau_{sh}\alpha_s A_s}{m_s C_{p,s}} I - \frac{h_{a-s}A_a + h_{s-sh}A_s}{m_s C_{p,s}} t_s + \frac{h_{a-s}A_a}{m_s C_{p,s}} t_a + \frac{h_{s-sh}A_s}{m_s C_{p,s}} t_{sh} \quad (6)$$

$$\frac{dt_a}{d\tau} = \frac{\tau_{sh}\tau_s\alpha_a A_a}{m_a C_{p,a}} I - \frac{(h_{a-s} + U_a)A_a}{m_a C_{p,a}} t_a + \frac{h_{a-s}A_a}{m_a C_{p,a}} t_s + \frac{U_a A_a}{m_a C_{p,a}} t_{t,h} \quad (7)$$

KPQSch qurilmasining umumiy issiqlik FIK qiymati:

$$\eta_{i,QSch} = \frac{LA_s(t_s - t_{sh})}{\tau_{sh}\tau_s\alpha_a I A_a} \quad (8)$$

Bak-akkumulyator qurilmasining issiqlik FIK qiymati:

$$\eta_{i,b.a} = \frac{m_2 C_{p,2}(t_2'' - t_2')}{m_1 C_{p,1}(t_1' - t_1'')} \quad (9)$$

Tashqi kondensator qurilmasining issiqlik FIK qiymati quyidagicha:

$$\eta_{i,t.k} = \frac{m_3 C_{p,3}(t_3'' - t_3')}{m_b(i_1' - i_1'')} \quad (10)$$

Yuqorida keltirilgan (8)-(10) tenglamalar asosida KKPQSch qurilmasining umumiy issiqlik FIK qiymatini aniqlash tenglamasiga ega bo‘lamiz:

$$\eta_{i,u} = \frac{LA_s(t_s - t_{sh})}{\tau_{sh}\tau_s\alpha_a I A_a + m_1 C_{p,1}(t_1' - t_1'') + m_b(i_1' - i_1'')} \quad (11)$$

Nazorat hajm uchun umumiy eksergiya balansi tenglamasi:

$$\left(\frac{dEx}{d\tau}\right)_{nh} = \sum Ex_k - \sum Ex_{ch} - \sum Ex_{yoiq} - \sum Ex_b \quad (12)$$

Kiruvchi eksergiya:

$$Ex_k = A_{sh} I \left[ 1 + \frac{1}{3} \left( \frac{t_{t,h} + 273}{6000} \right)^4 - \frac{4}{3} \left( \frac{t_{t,h} + 273}{6000} \right) \right] \quad (13)$$

Issiqlik oqimi eksergiyasi:

$$Ex_s = m_s C_{p,s} (t_1'' - t_1') \left( 1 - \frac{t_{t,h} + 273}{t_s + 273} \right) \quad (14)$$

Chiquvchi eksergiya:

$$Ex_{ch} = \frac{m_b r}{3600} \left( 1 - \frac{t_{t,h} + 273}{t_s + 273} \right) \quad (15)$$

Shaffof qoplama uchun eksergiya balansi tenglamasi:

$$E_{sh} = Ex_{sh-t,h} + Ex_{b,sh} = \alpha_{sh} Ex_q + Ex_{b-sh} - \frac{dEx_{sh}}{d\tau} \quad (16)$$

Sho‘r suv uchun eksergiya balansi tenglamasi:

$$E_s = Ex_{b,s1} + Ex_{b,s2} + Ex_{y,s1-t,h} = \tau_{sh}\alpha_s A_s Ex_q + Ex_{a-s} + Ex_{s1-s2} + Ex_{b-sh} - \frac{dEx_s}{d\tau} - \frac{dEx_{s2}}{d\tau} - \frac{dEx_{s3}}{d\tau} \quad (17)$$


Absorber plastina uchun eksergiya balansi tenglamasi:

$$E_a = Ex_{a-t,h} + Ex_{b,a} = \alpha_a \tau_{sh} \tau_s Ex_q - Ex_{a-s} - \frac{dEx_a}{d\tau} \quad (18)$$


KKPQSch qurilmasining umumiy eksergetik FIK qiymati:

$$\eta_{ex} = \frac{Ex_{ch}}{Ex_k} = \frac{Ex_{b-sh}}{Ex_q} = \frac{Ex_{b-sh}}{Ex_q + Ex_{s1-s2} + Ex_{b-s3}} \quad (19)$$

KKPQSch qurilmasining energetik va eksergetik samaradorliklarini sonli tadqiqot qilishda Matlab/Simulink dasturiy vositasidan foydalanib blok sxema ishlab chiqildi. Sonli tadqiqot davomida olingan natijalar oddiy KPQSch qurilmasi bo'yicha olingan natijalar bilan taqqoslangan. Sonli tadqiqot jarayonida zarur quyosh nurlanish intensivligi natijalari sifatida 20.07.24 yil kuni soat 8<sup>00</sup> dan 18<sup>00</sup> gacha tushgan quyosh nurlanish energiyasi natijalari olingan (2-rasm).



**2-rasm. 20.07.24 yil kuni quyosh nurlanish intensivligini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari**




**3-rasm. QSCh qurilmasida harorat o'zgarishini matematik modellashtirishni hisoblash natijalari**


Yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan natijalarda quyosh nurlanish intensivligi 7,5  $kVt\text{-soat}/m^2$  ni tashkil etgan. Sho'r suvni KPQSch qurilmasiga kirishdagi sarfi 0,07  $kg/min$  bo'lganda sho'r suv (s), shaffof qoplama (sh) va absorber plastina (a) haroratlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari 3-rasmda ko'rsatilgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, sho'r suvning maksimal harorati oddiy va KKPQSch qurilmasida mos ravishda 71,2°C va 84,1°C ni tashkil etgan, bunda KKPQSch qurilmada suvning maksimal harorati 18% ga yuqori bo'lgan. Bundan tashqari, sho'r suv, absorber plastina va shaffof qoplamalarning kunlik o'rtacha haroratlari KKPQSch qurilmada oddiy KPQSch qurilmasiga nisbatan mos ravishda 17,7%, 16,8% va 19,3% ga yuqori bo'lgan.

KKPQSch qurilmasida sho'r suvga issiqlik uzatish tezligi aniqlangan bo'lib, natijalarga ko'ra, kombinatsiyalashgan tizimdagi tashqi kondensator, bak-akkumulyator, oddiy va KKPQSch qurilmalarida kunlik uzatilgan umumiy issiqlik miqdori  $Q_{t.k} = 0,59 kVt$ ,  $Q_{b.a} = 1,41 kVt$ ,  $Q_{od} = 1,86 kVt$  va  $Q_{kom} = 3,27 kVt$  bo'lib, KKPQSch qurilmasida oddiy KPQSch qurilmasiga nisbatan 1,76 marta ko'p issiqlik miqdori uzatilgan. Energetik tahlil natijalariga ko'ra, KKPQSch qurilmaga uzatilgan umumiy issiqlik miqdorini 43,1% qismi bak-akkumulyator va qolgan 56,9% qismi KPQSch qurilmasi hissasiga to'g'ri keladi. Tashqi kondensator orqali yo'qotilgan issiqlik miqdori umumiy issiqlik miqdorining 18,04% qismini tashkil etadi. Oddiy va KKPQSch qurilmalarida, tashqi kondensator va bak-akkumulyatorlarda umumiy yo'qotilgan eksergiyani vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari 4-rasmda ko'rsatilgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, oddiy va KKPQSch qurilmasi, tashqi kondensator va bak-akkumulyatorlarda umumiy yo'qotilgan eksergiyaning kunlik miqdori  $Ex_{kom} = 2,53 kVt$ ,  $Ex_{od} = 1,99 kVt$ ,  $Ex_{b.a} = 0,37 kVt$  va  $Ex_{t.k} = 0,26 kVt$  ni tashkil etdi. Eksergetik tahlil natijalariga ko'ra, KKPQSch qurilmasida umumiy yo'qotilgan eksergiyaning 10,44% qismi tashqi kondensator, 14,55% qismi bak-akkumulyator va qolgan 75,01% qismi KPQSch

qurilmasi hissasiga to'g'ri keladi. Oddiy va KKPQSch qurilmalardagi chuchuk suvning unumdorliklarini o'zaro taqqoslanishi 5-rasmda ko'rsatilgan.




4-rasm. KPQSch qurilmasida umumiy yo'qotilgan eksergiyani vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari




5-rasm. KPQSch qurilmasining chuchuk suv bo'yicha unumdorliklarini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oddiy va KKPQSch qurilmalarda o'rtacha unumdorlik mos ravishda 0,5 va 0,9  $kg/(m^2 \cdot soat)$  ni tashkil etgan va KKPQSch qurilmada unumdorlik 55,6% ga yuqori bo'lgan. Chuchuk suvning kunlik chiqishi 5,94  $kg/kun$  dan 10,13  $kg/kun$  gacha, ya'ni taxminan 58,6% ga ortgan.

Oddiy va KKPQSch qurilmalarining energetik FIK qiymatlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari 6-rasmda ko'rsatilgan. Natijalarga ko'ra, oddiy va KKPQSch qurilmalarida maksimal energetik FIK qiymati mos ravishda 0,33 va 0,85, o'rtacha energetik FIK qiymati 0,26 va 0,45 esa ni tashkil etgan, bunda KKPQSch qurilmasining energetik FIK qiymati 57,8% ga yuqori bo'lgan. Oddiy va KKPQSch qurilmalarining eksergetik FIK qiymatlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari 7-rasmda ko'rsatilgan.



6-rasm. KPQSch qurilmalarining energetik FIK qiymatlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi




7-rasm. KPQSch qurilmalarining eksergetik FIK qiymatlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi

Olingan natijalarga ko'ra, KKPQSch qurilmasining maksimal eksergetik FIK qiymati 0,19 ga yetgan. Oddiy KPQSch qurilmasida maksimal eksergetik FIK qiymati 0,08 ga yetgan. Oddiy va KKPQSch qurilmasining o'rtacha eksergetik FIK qiymati mos ravishda 0,06 va 0,11 ni tashkil etgan bo'lib, kombinatsiyalashgan qurilmaning o'rtacha eksergetik FIK qiymati 55% ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Kombinatsiyalashgan ko'p pog'onali quyosh suv chuchutgich qurilmasini ishlab chiqish va tajribaviy tadqiqot qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba qurilmasining umumiy tavsifi va tajriba tadqiqotlarini o'tkazish metodikasi, oddiy va KKPQSch qurilmasida issiqlik almashinuv jarayonlarini tajribaviy tadqiqoti natijalari, KKPQSch qurilmasida

Issiqlik almashinuv jarayonlarini hamda chuchuk suv bo'yicha unumdorliklarini tajribaviy tadqiqoti natijalari keltirilgan.


Oddiy KPQSCh qurilmasida issiqlik almashinuv jarayonlarining tajribaviy tadqiqotlari 2024 yilning 22 va 23 avgust kunlarida o'tkazilgan va avtoreferatda 22 avgustdagi natijalar keltirilgan. 2024 yilning 22 avgust kunda quyosh nurlanish intensivligi va tashqi havo haroratlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi 8-rasmda ko'rsatilgan.




**8-rasm. Quyosh nurlanish intensivligi va tashqi havo haroratini vaqt bo'yicha o'zgarishi**

Yuqoridagi 8-rasmda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, tajriba tadqiqotlarining natijalari manbadagi natijalardan juda kam farq qiladi. Tajriba tadqiqotlarida umumiy quyosh nurlanish energiyasi  $6,72 \text{ kVt}\cdot\text{soat}/\text{m}^2$  ni, natijalarning validatsiyasi yaqinlashish ishonchliligi bilan tekshirilganda mos ravishda  $R^2 = 0,994$  ni tashkil etgan. Tajriba tadqiqotlarida tashqi havo harorati mos ravishda  $26,7...35,4^\circ\text{C}$  oralig'ida o'zgargan, natijalarning validatsiyasi yaqinlashish ishonchliligi bilan tekshirilganda mos ravishda  $R^2 = 0,9925$  ni tashkil etgan.

Oddiy KPQSCh qurilmasiga uzatilayotgan sho'r suvning sarfi o'zgarimas  $0,07 \text{ kg}/\text{min}$  bo'lganda, sho'r suv, shaffof qoplama va absorber plastina haroratlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari 9-rasmda ko'rsatilgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, absorber plastinaning harorati  $21,4...70,5^\circ\text{C}$ , sho'r suvning harorati  $21,3...68^\circ\text{C}$  va shaffof qoplamaning harorati  $20,8...63,7^\circ\text{C}$  oraliqda o'zgargan, bunda tajriba qiymatlarini nazariy qiymatlarga yaqinlashish ishonchliligi mos ravishda  $R^2 = 0,9866$ ,  $R^2 = 0,9829$  va  $R^2 = 0,9838$  ni tashkil etgan. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, nazariy va tajriba natijalarining maksimal xatoligi 5% dan oshmaydi, demak ishlab chiqilgan matematik modeldan absorber plastina, sho'r suv va shaffof qoplamaning haroratlarini hisoblashda to'liq foydalanish mumkin.




**9-rasm. Oddiy KPQSCh qurilmasida haroratni o'zgarishi natijalari**




**10-rasm. Oddiy KPQSCh qurilmasining issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini o'zgarishi natijalari**

Oddiy KPQSCh qurilmasining issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini vaqt bo'yicha o'zgarishi 10-rasmda keltirilgan. 10-rasmdagi natijalardan ko'rinib

turibdiki, KPQSCh qurilmasining bug‘latish kamerasining kunlik o‘rtacha issiqlik samaradorligi 29,2% ga yetgan, bunda natijalarning yaqinlashish ishonchliligi  $R^2 = 0,9902$  ni tashkil etgan. Tashqi havo, sho‘r suv, shaffof qoplama va absorber plastinaning haroratlarini tajribaviy qiymatlari asosida oddiy KPQSCh qurilmasidagi foydali eksergiya qiymatlari aniqlandi (11-rasm).




11-rasm. Oddiy KPQSCh qurilmasida foydali eksergiyani o‘zgarishi natijalari




12-rasm. Oddiy KPQSCh qurilmasining eksergetik samaradorligini vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

Yuqoridagi 11 va 12-rasmlarga ko‘ra, oddiy KPQSCh qurilmasidagi foydali eksergiya miqdori mos ravishda 60,8...295,0 Vt va 58,7...282,4 Vt oralig‘ida o‘zgargan bo‘lib, bunda natijalarning yaqinlashish ishonchliligi  $R^2 = 0,9853$  va  $R^2 = 0,9832$  ni tashkil etgan. Foydali eksergiya miqdorining nazariy va tajribaviy natijalari asosida oddiy KPQSCh qurilmasining eksergetik samaradorligi aniqlandi (12-rasm). Natijalardan ko‘rinib turibdiki, KPQSCh qurilmasining eksergetik samaradorligi 3,4...8,1% oralig‘ida o‘zgargan, bunda natijalarning yaqinlashish ishonchliligi  $R^2 = 0,9836$  ni tashkil etgan. Oddiy KPQSCh qurilmasida o‘tkazilgan nazariy va tajriba tadqiqotlari natijalaridan ko‘rinib turibdiki, taklif etilgan energetik va eksergetik modellardan KPQSCh qurilmasini loyihalashda foydalanish mumkin. KKPQSCh qurilmasining bug‘latish kamerasida shaffof qoplama, sho‘r suv va absorber plastina haroratlarini vaqt bo‘yicha o‘zgarishi 13-rasmda ko‘rsatilgan.




13-rasm. KKPQSCh qurilmasida haroratni o‘zgarishi natijalari




14-rasm. KKPQSCh qurilmasining bug‘latish kamerasida issiqlik miqdorini o‘zgarishi natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, absorber plastinaning harorati 21,3...83,9°C, sho‘r suvning harorati 20,7...80,0°C va shaffof qoplamaning harorati 21,0...76,1°C oraliqda o‘zgargan, bunda KKPQSCh qurilmasida maksimal haroratlar oddiy KPQSCh qurilmasiga nisbatan mos ravishda 19%, 17,6% va 19,5% ga yuqori bo‘lgan hamda natijalarning yaqinlashish ishonchliligi  $R^2 = 0,9886$ ,  $R^2 = 0,9901$  va  $R^2 = 0,9861$  ni tashkil etgan. KKPQSCh qurilmasining bug‘latish kamerasida issiqlik miqdorini o‘zgarishi natijalari 14-rasmda ko‘rsatilgan. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, KKPQSCh qurilmasining bug‘latish kamerasiga 6,73  $kVt \cdot soat/m^2$

miqdorida quyosh nurlanish energiyasi uzatilganda jami  $3,71 \text{ kVt}\cdot\text{soat}/\text{m}^2$  energiya qabul qilingan, bu oddiy KPQSch qurilmasiga qaraganda 70,92% ga yuqori. KKPQSch qurilmasidagi bak-akkumulyator va tashqi kondensatorlarda uzatilgan issiqlik miqdorini vaqt bo'yicha o'zgarishi natijalari 15-rasmda ko'rsatilgan.




**15-rasm. Bak-akkumulyator va tashqi kondensatorlarda uzatilgan issiqlik miqdorini o'zgarishi**




**16-rasm. KKPQSch qurilmasining issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini o'zgarishi natijalari**

